

**TALABALARNING MUSIQIY-BADIIY DIDINI TARBIYALASHDA  
MILLIY MUSIQA MEROSINING AHAMIYATI**

**Maxamatova Marjona Azamatjonovna**

*Farg‘ona davlat universiteti*

*Pedagogika-psixologiya va san‘atshunoslik fakulteti*

*“Vokal va cholg‘u ijrochilig” kafedrası*

*Cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishi, 3-bosqich talabasi*

[marjonmaxamatova@gmail.com](mailto:marjonmaxamatova@gmail.com)

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada milliy musiqa merosdan oliy o‘quv yurtlarida balki, umumiy ta‘lim vaqtida samarali foydalanish tushunish va anglata olish haqida gaprib o‘tilgan. Bu maqolaning ahamiyatli jihati shundaki, har bir jarayon aniq yorqin tasvirlangan.*

**Kalit so‘zlar:** *milliy mumtoz musiqa, san‘ati, ta‘lim, yosh avlod, zamonaviy texnologiyalar, tarbiya, ritm, integratsiya, metod*

O‘zbek musiqa ta‘limida xalq qo‘shiqlaridan foydalanish jarayoni nafaqat o‘quvchilarning musiqiy saviyasini oshirish, balki ularni milliy madaniyatga, tarixiy qadriyatlar va ma‘naviy an‘analarga hurmat bilan tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Musiqa darslarida xalq qo‘shiqlari milliy merosning eng boy va ifodali qismi sifatida pedagogik jarayonga kiritiladi. Ular o‘quvchilarda nafaqat estetik didni shakllantiradi, balki ritm va melodiyaning tushunish, og‘zaki va ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, xalq qo‘shiqlari darslarda ijtimoiy va ma‘naviy mazmuni o‘rgatish vositasi sifatida ham ishlatiladi, chunki ularning matnlarida ko‘pincha tarixiy voqealar, xalqning kundalik hayoti, qadriyatlar va axloqiy tamoyillar aks etadi. Har bir musiqa o‘qitish jarayonida tarixiy ma‘lumot jarayonieng zarur dars qismidan iborat shunday ekan, musiqiy har bir cholg‘uni va hozirda eng asosiy muhim imkoniyatdan biri notalashtirish ya‘ni boma tarzda ushbu jarayon avvalgi tarixdagi bosma notalashtirish hamda hozirgi kundagi notalashtirish tizimini o‘rganishda tarixiy rivojlanish bosqichidagi ko‘rinishi va tashkillanishi haqida o‘rgatiladi.<sup>5</sup>

Xalq qo‘shiqlaridan ta‘lim jarayonida foydalanish metodikasi ko‘p qirrali va turli darajalarda qo‘llaniladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar oddiy ritm va melodialarga ega qo‘shiqlarni o‘rganadi, ular orqali nafaqat musiqiy eshitish va ijro etish ko‘nikmalari shakllanadi, balki ularning eslab qolish va xotira rivojlanadi. O‘rta va maktabdan keyingi

<sup>5</sup> Karomatov F. “O‘zbek xalq musiqa merosi”, - Toshkent: Fan, 1978. – 240 b.

musiqiy ta'lim bosqichlarida esa murakkabroq xalq qo'shiqlari va maqom unsurlari darslarga kiritiladi, bu esa o'quvchilarning texnik va ifodaviy mahoratini oshiradi. Shu tariqa, xalq qo'shiqlari ta'lim jarayonining turli bosqichlarida o'quvchilarning rivojlanishiga moslashadi.<sup>6</sup>

Xalq qo'shiqlari pedagogik jarayonda nafaqat alohida ijro sifatida, balki boshqa musiqa elementlari bilan integratsiyalashgan holda ham ishlatiladi. Masalan, darslarda qo'shiqlarni cholg'u asboblari bilan birga ijro etish orqali o'quvchilar ritm, garmoniya va melodik tuzilmani yaxshiroq tushunadi. Rubob, dutor, tanbur va doira kabi milliy cholg'u asboblardan foydalangan holda qo'shiqlarni ijro etish o'quvchilarning texnik ko'nikmalarini boyitadi, musiqa nazariyasi bilimlarini mustahkamlaydi va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

O'qituvchilar xalq qo'shiqlarini tanlashda ularning pedagogik ahamiyatiga katta e'tibor berishadi. Qo'shiqlar o'quvchilarning yoshiga, rivojlanish darajasiga va musiqiy tajribasiga mos bo'lishi kerak. Shu bilan birga, matnlarning mazmuni ma'naviy va axloqiy tarbiya bilan bog'liq bo'lishi, milliy qadriyatlarni aks ettirishi zarur. Shu tariqa xalq qo'shiqlari nafaqat musiqa savodxonligini oshirish, balki o'quvchilarning ma'naviy va estetik tarbiyasini rivojlantirish vositasi sifatida ishlatiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonida xalq qo'shiqlaridan samarali foydalanish o'quvchilarning nafaqat ijodiy, balki kognitiv rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mashhur musiqashunos va pedagog Yunus Rajabiy xalq qo'shiqlarini ta'lim jarayonida tizimli ishlatish orqali ularning estetik va ma'naviy qimmatini oshirish mumkinligini ta'kidlagan. Misol uchun, "Kelin salom" yoki "Yor-yor" kabi marosim qo'shiqlarida oila qadri, urf-odatlar aks ettirilgan. Bu kabi qo'shiqlarni o'rganish orqali o'quvchilar milliy qadriyatlarni his etadi va o'zligini anglashga intiladi.

Ta'lim jarayonida xalq qo'shiqlari bilan ishlashning uslubiy yondashuvlari. Xalq qo'shiqlaridan ta'limda foydalanish uchun quyidagi yo'llarni ajratish mumkin:

➤ Fanlararo integratsiya: Adabiyot, musiqa, tarix, ona tili, tasviriy san'at kabi fanlarda xalq qo'shiqlaridan foydalanish orqali o'quvchilarda kompleks dunyoqarashni shakllantirish mumkin.

➤ Tahliliy faoliyat: Qo'shiqlardagi mazmun, obrazlar, til vositalarini tahlil qilish orqali o'quvchilarning badiiy tafakkuri, nutqi rivojlanadi.

➤ Ijodiy yondashuv: O'quvchilarga xalq qo'shiqlari asosida sahna ko'rinishlari tayyorlash, o'z qo'shiqlarini yaratish topshiriqlari berish orqali ularning ijodiy salohiyati oshadi.

<sup>6</sup> Karomatli H. "O'zbek musiqa folklori", – Toshkent: Fan, 1987. – 214 b

➤ Musiqiy tarbiya: Qo‘shiqlarni tinglash va kuylash orqali musiqa estetikasi, ritm, milliy ohanglarni anglash kabi ko‘nikmalar shakllanadi.

O‘quvchilarda milliy ong va ma‘naviyatni shakllantirishda xalq qo‘shiqlarining roli. Xalq qo‘shiqlari yosh avlodga milliy g‘urur, vatanparvarlik, o‘zlikni anglash kabi fazilatlarini singdirishda beqiyos vositadir. Alla qo‘shig‘i orqali yurt tuyg‘usi, ona diyorga mehr bola ongiga singdiriladi. Shu tariqa, xalq qo‘shiqlari orqali:

- Milliy o‘zlikni anglash;
- Tarixiy-madaniy merosga hurmat;
- Oila, tabiat, mehnatga nisbatan ijobiy munosabat;

Estetik did va musiqiy savodxonlik singari pedagogik natijalarga erishish mumkin.

Xalq qo‘shiqlari darslarda ijro etilganda o‘quvchilar nafaqat qo‘shiqni to‘g‘ri ijro etishni o‘rganadi, balki uning tarixiy konteksti, janri va ma‘naviy mazmunini ham tushunadi. Masalan, marosim qo‘shiqlari va to‘y qo‘shiqlari orqali o‘quvchilar xalq hayotining turli jihatlarini bilib oladi, ularning tarixiy tafakkuri va ijtimoiy ongini rivojlantiradi. Shu tariqa xalq qo‘shiqlari ta‘lim jarayonining estetik, ma‘naviy va ijtimoiy funksiyalarini birlashtiradi<sup>7</sup>.

O‘zbek xalq qo‘shiqlarining hududiy janrlari ta‘lim jarayonida o‘quvchilarga turli xil musiqiy tajriba berish imkonini yaratadi. Har bir hududning qo‘shiqlari o‘ziga xos melodik va ritmik xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni darslarda ishlatish o‘quvchilarning nafaqat musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantiradi, balki ular orqali o‘quvchilar o‘zbek madaniyatining turli jabhalari bilan tanishadi. Masalan, Buxoro va Samarqand hududlarining maqomlari murakkab melodik naqshlar va ohanglar bilan ajralib turadi, Farg‘ona vodiysi qo‘shiqlari esa ritmik jihatdan boy va tez-tez o‘ynaladigan yalla va marosim qo‘shiqlarini o‘z ichiga oladi. Shu tarzda, o‘quvchilar hududiy xilma-xillikni his qilib, turli janrlarni ijro etish orqali musiqiy tafakkurini kengaytiradi.

Maqom va murakkab xalq qo‘shiqlarini o‘qitishda metodik yondashuv juda muhim. Pedagoglar darslarni bosqichma-bosqich rejalashtiradi. Avval oddiy melodik maqshlar va ritmlarni o‘rgatish, keyin esa murakkab maqomlar va ritmik kombinatsiyalarni ijro etishga o‘tiladi. Shu jarayonda o‘quvchilarning texnik va ifodaviy ko‘nikmalari, ritmni to‘g‘ri ushlab, ohang va kayfiyatni his qilish qobiliyati shakllanadi. Shuningdek, pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, maqom va murakkab qo‘shiqlarni ijro etish o‘quvchilarda konsentratsiya va diqqatni oshiradi, musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantiradi. Cholg‘u asboblari bilan birga xalq qo‘shiqlarini ijro etish metodikasi ham keng qo‘llaniladi. Masalan, darslarda rubob, dutor yoki tanbur bilan qo‘shiqlarni birga ijro etish orqali o‘quvchilar ritmni his qilishi, melodiyani uyg‘unlashtirishi va ohangni to‘g‘ri chiqarishi

<sup>7</sup> Matyoqubov O. “O‘zbek maqom san’ati”, – Toshkent: O‘zbekiston, 2001. – 256 b.

osonlashadi. Pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, asboblarni bilan ishlash musiqiy tajribani boyitadi, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi va o'quvchilarning ijro texnikasini oshiradi. Shu bilan birga, bu jarayon ularni milliy meros bilan chuqurroq tanishtiradi.<sup>8</sup>

Musiqaning ta'limi tizimida xalq qo'shiqlaridan foydalanish masalasi muhim pedagogik va metodik ahamiyat kasb etadi. Zero, xalq og'zaki ijodining ajralmas qismi bo'lgan xalq qo'shiqlari o'zida millatning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy hayoti, urf-odat va an'analari, ma'naviy-estetik qarashlarini mujassamlashtirgan bebaho meros sifatida namoyon bo'ladi.

Xalq qo'shiqlari musiqaning darslarida o'quvchilarning musiqiy eshituv qobiliyatini shakllantirish, ularning ritmik tuyg'usini rivojlantirish hamda vokal ijrochilik malakalarini takomillashtirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu qo'shiqlarning ohang jihatdan sodda va esda qolarli bo'lishi o'quvchilarning ularni tez o'zlashtirishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, xalq qo'shiqlarining badiiy ifodaviyligi o'quvchilarda musiqaga nisbatan estetik didni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur qo'shiqlardan foydalanishning yana bir muhim jihati – ularning tarbiyaviy ahamiyatidir. Xalq qo'shiqlari orqali o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, insoniylik, mehr-oqibat kabi fazilatlar shakllanadi. Bu esa ta'lim jarayonining nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy vazifasini ham samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.<sup>9</sup>

Bundan tashqari, xalq qo'shiqlari o'quv jarayonida fanlararo integratsiyani ta'minlash imkonini beradi. Jumladan, qo'shiqlar matnini tahlil qilish orqali o'quvchilarning til boyligini oshirish, ularning badiiy tafakkurini rivojlantirish, tarixiy voqea va hodisalar haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Bu esa ta'limning kompleks yondashuv asosida olib borilishiga zamin yaratadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, musiqaning darslarida xalq qo'shiqlaridan foydalanish metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi lozim. O'qituvchi qo'shiqlarni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib tanlashi, ularni o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishi zarur.

Innovatsion metodlar yordamida xalq qo'shiqlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar va multimedia vositalaridan foydalanish ham muhimdir. Masalan, video va audio materiallar orqali o'quvchilar turli hududlarning qo'shiqlarini tinglab, ularni to'g'ri ijro etishni o'rganadi. Shu tarzda darslar yanada interaktiv va qiziqarli bo'ladi, o'quvchilar milliy merosga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Musiqaning ta'limida multimedia vositalaridan foydalanish xalq qo'shiqlarining tarixiy va madaniy kontekstini o'rgatishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchilar xalq qo'shiqlaridan foydalanishda olimlar fikridan ham keng foydalanadi.

<sup>8</sup> Jabborov A. "O'zbek musiqaning tarixi", – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 176 b.

<sup>9</sup> Karomatli H. "O'zbek musiqaning folklori", – Toshkent: Fan, 1987. – 214 b.

Har qanday ijtimoiy-estetik voqeylik va obrazlilikning ham estetik, ham axloqiy va ma'naviy mohiyati bo'ladi. Axloqlik, go'zallik, aqllilik o'z mohiyatiga ko'ra farosatlilik, sergaklik, zukkolik, zehnilik kabi xislatlar bilan uzviy-tarkibiy birlikni tashkil qiladi. Kishiga baho berishda uning zukkoligi, topqirligi, mantiqiy fikrlashi, o'z fikrlarini ilmiy asosli ifoda etishi undagi bilimdonlik aqllilik, donolik xislatlari sifatida baholansa farosat, sergaklik, o'zini tutishi, munosabat bildirishi aynan bilimdonlik va yuqori didni uyg'unlik ifodasi bo'lib hisoblanadi.<sup>10</sup>

Shuni ta'kidlash kerakki, go'zalikni his etish, tushunish ruhida tarbiyalangan inson har bir narsaga talabchanlik bilan munosabatda bo'ladi, shoshqaloqlik, palapartishlikka yo'l qo'ymaydi, ehtiyotkor, tejamkor, axloq odob me'yorlariga amal qiladi, har bir narsani o'z didiga mos tanlaydi va bu umumiy munosabat mezoniga mos tushadi. Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarning musiqiy-badiiy didini shakllantirish estetik tarbiyani amalga oshirishning bosh maqsad va vazifalari mazmunidan kelib chiqadi. Chunki dars jarayonida shunchaki musiqani tinglash, qo'shiq kuylash, nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan o'quvchilarda musiqiy-badiiy didni yoki estetik madaniyatni shakllantirib bo'lmaydi. Estetik tarbiya va badiiy-estetik did bir-birini inkor etmaydigan, aksincha bir-birini to'ldiruvchi, biri ikkinchisini yuzaga chiqaruvchi, imkoniyat yaratuvchi sifatida pedagogik va psixologik xususiyat kasb etadi. Musiqa darslari jarayonida estetik tarbiya vazifalarini amalga oshirishga ko'pincha yuzaki munosabatda bo'lishadi.

Bu tinglanayotgan, yoki jamoa bo'lib kuylanayotgan qo'shiqning badiiy asar sifatidagi xususiyatlari (g'oyaviy badiiy mazmuni, obrazlar mohiyati, muallif g'oyasi ijodiy fantaziyasi, asar yaratilgan davr, qahramonlar kechinmalari, asarning ifoda vositalari, janri, shakli, xarakteri, ijro uslublari va hokazo) badiiy, musiqiy-nazariy tahlil qilinmasligi musiqa o'qituvchilarini darsga alohida tayyorgarliksiz, aniq maqsadsiz munosabatda bo'lishida ko'rinadi. Vaholanki, o'quvchilar bilan badiiy-musiqiy asar materiali asosidagi ta'limiy va tarbiyaviy ishning saviyasi, asarni o'quvchilarning kuylash, tinglab idrok qilish imkoniyatlariga mosligi, g'oyaviy-badiiy mazmunni tarbiyaviy ta'sirchanlikka ega bo'lishiga bog'liq bo'ladi. Aks holda badiiy asarning o'quvchilar musiqiy ongi, tafakkuri, dunyoqarashi va badiiy didi shakllanishiga ijobiy ta'siri samarasiz bo'lib qoladi.

San'atni, tabiatni va go'zallik xususiyatlariga ega narsa va hodisalarni, xususan musiqa asarini estetik idrok qilish o'quvchida badiiy did, estetik ideal go'zallik va uyg'unlikni ko'rish, his qilish va ularni baholash ko'nikmalarini tarkib topishiga olib keladi. Bu jarayonda umumta'lim maktablaridagi musiqa darslari, darsdan tashqari musiqiy faoliyat,

<sup>10</sup> Akbarov I. "Musiqa lug'ati", – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. – 384 b.

maktabdan tashqari ishlar o‘zaro uyg‘unligi jiddiy bosqich hisoblanadi. U o‘quvchilarni san’atdagi va borliqdagi go‘zalliklar bilan tanishtirib, ularda san’atdagi voqelikni teran anglash, badiiy asarga xos xususiyatlarni farqlay olish, baholash badiiy didlarini o‘shigiga salmoqli ta’sir ko‘rsatadi. Musiqa darslarida ta’limiy vazifalarni maqsadga muvofiq holda amalga oshirilishi natijasida o‘quvchilar badiiy-musiqiy asarlarni mazmunini tushunib, baholay oladigan, ulardagi ijobiy go‘zallik va ijro mahoratini his etadigan asl narsani oddiy narsadan farqlay oladigan darajaga erishadilar. Muhimi shundaki, musiqa asarlarini o‘tkir did bilan baholay oladigan o‘quvchi kelgusida yetuk shaxs bo‘lib yetishishi kafolatlanadi.

O‘quvchilarning musiqiy-badiiy didini tarbiyalash o‘z ichiga bir nechta jihatlarni birlashtiradi:

1. Asar g‘oyaviy-badiiy mazmunini ongli idrok etish, his etish;
2. Asarga asosli ravishda baho bera olish;
3. Badiiy yetuk asarlarni oddiy asarlardan farqlay olish;
4. Asarlarni badiiy-emotsional his qilish, asardan ilhomlanish, lazzatlanish va rohatlanish;
5. Asardagi go‘zallikni ilg‘ay olish, haqiqiy san’at asarini qadriga yetish, asrab avaylashga ehtiyoj sezish;
6. Asarlarni bevosita ijro etishga bo‘lgan ishtiyoq, uni badiiy mukammal qilib ijro etishga intilish;
7. Asarning badiiy obrazlarini tahlil qila olish va uni o‘z hayotiga tadbiiq etishga intilish ya’ni hayotga badiiy estetik ko‘z bilan qaray olish.

#### **XULOSA**

Zamonaviy musiqa ta’limida milliy merosni o‘qitish metodlari, amaliy mashg‘ulotlarda xalq kuy va qo‘shiqalaridan foydalanish usullari ham atroflicha o‘rganildi. Ma’lumki, har bir xalqning ma’naviy boyligi uning madaniy merosi orqali namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalqining boy musiqa merosi ham xalqning tarixiy rivojlanishi, urf-odatlarini, an’analari va ma’naviy qadriyatlarini bilan chambarchas bog‘liqdir. Asrlar davomida shakllanib kelgan xalq qo‘shiqlari, kuylar, maqom san’ati va milliy cholg‘u asboblari o‘zbek xalqining betakror musiqiy madaniyatini tashkil etadi. Ushbu boy merosni yosh avlodga yetkazish va uni ta’lim jarayonida samarali qo‘llash musiqa ta’limining muhim vazifalaridan biridir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Karomatli H. “O‘zbek musiqa folklori”. – Toshkent: Fan, 2020. – 214 b.
2. Karomatov F. “O‘zbek xalq musiqa merosi”. – Toshkent: Fan, 1978. – 240 b.
3. Matyoqubov O. “O‘zbek maqom san’ati”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001. – 256 b.

4. Jabborov A. “O‘zbek musiqa tarixi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 176 b.
5. Karomatli H. “O‘zbek musiqa folklori”. – Toshkent: Fan, 1987. – 214 b.
6. Akbarov I. “Musiqa lug‘ati”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1987. – 384 b.

